

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY – MA'RIFAT ZIYOSI

Djumaboyeva Sarvinoz Ravshan qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, magistranti, ORCID: 0009-0005-3901-1772

djumabayevas24@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek jadidchilik harakati asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti haqida bir qancha ma'lumot beriladi. Shuningdek, atoqli jadid arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning maqolasi va hikoyasi haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: ma'rifatparvar, "Oyina" jurnali, "Turon" teatri, "Ibrat farzandlari", jadidlar, millat ozodligi.

*Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boyligni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi.*¹¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand shahrining Yomini mahallasida imom-xatib Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li xonadonida tug'ilgan. Otasi Ahmad Yassaviy avlodidan. Otasining buvasi Niyozxo'janing asli kelib chiqishi urganchlik bo'lib, Samarqandga XVIII asr oxirida, amir Shohmurod hukmronlik davrida ko'chib kelgan. 1868-yilda rus askarlari Samarqandga bostirib kirkandan keyin otasi Behbudxo'ja oilasini olib Baxshitepa qishlog'iga ko'chib o'tgan va shu qishloqda imomlik qilgan. Behbudiyning onasi esa muftiy Odil Mansur o'g'lining singlisi bo'lgan. Behbudiy dastlab otasidan Qur'on ilmini o'rgangan, keyinchalik 6-7 yoshlarida tog'asi Muhammad Siddiq qo'lida o'qib, savod chiqargan. 15 yoshida boshqa bir tog'asi Mulla Odil o'zi mudarrislik qilgan madrasada o'qitib ta'lim bergan. Oilasi ma'rifatparvar va ziyoli bo'lgan. Ikki singlisi ham o'qib, tahsil olgan. Qur'onni yaxshi bilgan. 1893-yilda onasi, 1894-yilda otasi vafot etgan. Behbudiy 18 yoshida Chashmai ob volostida qozi vazifasida ishlagan tog'asi Muhammad Siddiq qo'l ostida mirzalik qilgan. Tog'asi oldida ikki yil ishlagach, mirzalik faoliyatini Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o'g'li qo'lida davom ettiradi. Chunki bu paytda tog'asi qozilikdan bo'shatilgan. Mirza va qozilik bilan shug'ullanib, so'ng Jomboyda muftiylilik darajasiga ko'tarilgan. Behbudiy Kabut bo'lisida 10 desyatina yerga egalik qilgan. O'ziga to'q va badavlat kishidir. Behbudiy 1899–1900-yillarda buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan birga Makka va Madinada haj safariga otlangan. Shu sababli Rossiya, Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan. Safar jarayonida sayohatning har qanday turi – poyezd, kema, otda va piyoda yurib dunyo kezgan. Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. 1914-yili ikkinchi marta haj safari chog'ida Shom, Quddus, Odessa, Istanbul va boshqa shaharlarni kezgan. O'z sayohati

¹¹ Jadidlar: Mahmudxo'ja Behbudiy asari 3-bet

davridagi xotiralarini Samarqandda nashr etilayotgan Oyna jurnalining tahririyatiga yuborib turgan.

1903–1904-yillarda Moskva, Peterburg, Orenburg, Qozon va Qrimda bo‘lgan. Maorif sohasida Rossiya va tatar arboblari tajribasini o‘rgangan. Mahmudxo‘ja Behbudiy Ismoil Gaspirinskiy bilan birinchi marta 1897-yilda Gaspirinskiyning Turkistonga sayohati vaqtida Samarqandda tanishgan. Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashuvi keyingi hayotiga ta’sir katta ko‘rsatdi. Ismoilbey va Behbudiyning ikkinchi uchrashuvi 1914-yilning yozida yuz bergan.¹²

Juda uzoq o‘tmishda emas deyarli 1 asr avval yashab ijod qilgan, millat ilm olib, o‘qib rivojlanishi uchun qo‘lidan kelganicha harakat qilgan Turkiston jadidchilar harakati asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida qancha yozsak ham oz, shunga qaramay biz bu borada biroz fikr bildirmoqni lozim deb topdik, zero har bir avlod o‘z ajdodi haqida ma’lumotga ega bo‘lmog‘i va ular qilgan fidoyiliklarini qadr-qimmatini bilib, anglab, maqsad qo‘yib, millatga manfaati tegadigan ulug‘ bir shaxs o‘laroq voyaga yetmog‘i zarur. Behbudiy, birinchi navbatda, muallim edi. Turkistondagi yangi maktablarning nazariyotchisi va amaliyotchisi edi. U o‘zining qizg‘in ijodiy va amaliy faoliyati bilan millat muallimi, Turkistonning ma’naviy rahnamalaridan biri darajasiga ko‘tarildi. U buyuk ma’rifatchi edi. Ma’rifat shunchaki bir ilm-fan va uni targ‘ib qilish-u, ma’rifatchi shularni bajaruvchi, degani emas. Tarix ilm-fanni qoyilmaqom egallagan, lekin osmondagi chaqinday besamar ketgan yoxud yashin bo‘lib, obod yerni barbod etgan o‘nlab, hatto yuzlab daholarni biladi. Ma’rifat ilm-fanning qalblarga bergan ziyosidir. Behbudiy chinakam millatparvar edi. U hech qachon o‘z millatini boshqa bir millatga qarshi qo‘ymagan, aksincha, dunyodagi barcha millatlarga, shu jumladan, Rus va Ovro‘po millatlariga mehr va muhabbat bilan qaragan keng fikrli ma’rifatchi edi. U tilni, shu jumladan, Ovro‘po tillarini ilm-fan kaliti deb hisobladi. “Ikki emas, to‘rt til lozim” deb chiqdi. Har bir turkistonlik o‘z ona tilidan tashqari fors, arab, rus, hatto fransuz tilini bilmog‘i kerak, aks holda dunyo bilan barobar yashab bo‘lmaydi, degan fikrda edi. U millat ravnaqi uchun universitetlar lozimligini dil-dildan his qildi. 1918-yili Toshkentda ochilgan Turkiston musulmon dorulfununini chin yurakdan tabrik etdi. O‘sha yili Samarqandda uning sho‘basini ochib, bugungi Milliy universitetimizning maydonga kelishida o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.¹³ Chindan “ikki emas to‘rt til lozim” maqolasi hozir ham dolzarbligini yo‘qotmagan, sababi ayni damda ilm-ma’rifatli inson bo‘lish uchun har bir insonda kerakli ma’lumotlar bazasi bo‘lishi zarur bunda esa til bilish muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi Yangi O‘zbekiston sharoitida til bilish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, “Yoshlar ishlari agentligi” tomonidan asos solingan “Ibrat farzandlari” loyihasi va ilovasi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Ilovadan foydalangan holda istalgan tilni bemalol, bepul o‘rganish imkoniyati hozirgi yoshlarda mavjud, oqilona foydalanish kerak, xolos. Behbudiyning diqqatga sazovor yana bir hikoyasi haqida ham to‘xtalish o‘rinli deb hisoblaymiz, “Oyina” jurnalida chop etilganida juda katta aks-sado bergan bu hikoya “Bir vafolik zaifaning xususida hikoya” dir. Asar bosh qahramoni sadoqat va mustahkam irodali, vafoli ayol sifatida gavdalaandi. Muallif bunda oila muqaddas maskan ekanini eslatdi va oilani saqlab qolish uchun kurashayotgan ayolni ulug‘laydi.

¹² https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahmudxo'ja_Behbudiy

¹³ «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2005 yil 4-sonidan olindi

Ayolning sadoqati barcha boyliklardan afzal ekani, u vafo va tarbiya manbai ekani yaqqol namoyon bo'ladi. Agar ayol vafodor va oqila bo'lsa, u tarbiya bergan farzandlar ham millatga sadoqatli vijdonli bo'lishini ham bilishimiz mumkin.

Mahmudxo'ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga boshqosh bo'ldi. Behbudiy faqatgina maktablar ochish bilangina cheklanib qolmadi. U "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir" degan fikrni ilgari surdi. Uning sa'y-harakatlari bilan milliy matbuot va teatr xalqning aqlini teranlashtiruvchi asosiy vositaga aylandi. Mohir publitsist sifatida o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi.

Shu bilan birga, «Samarqand» gazetasi hamda «Oyina» jurnaliga asos soldi. 1914-yilda «Turon» teatrida sahnalashtirilgan «Padarkush» pyesasi orqali o'lkamizda teatr san'atining tamal toshini qo'ydi. Afsuski, atoqli adib va jamoat arbobi bo'lgan bu mutafakkir zot 44 yoshida yovuz kuchlar qurboni bo'ldi.¹⁴

Shuningdek, Behbudiy o'z maqolalarida til masalasiga alohida urg'u bergan. Behbudiy boshchiligidagi jadidlar faqat ta'limni isloh qilishni emas, balki butun jamiyatni yangilashni maqsad qilgan edilar. Ular xalqni xurofot va jaholat botqog'idan olib chiqishning yagona yo'li — ilm va san'atda deb bildilar. Shu sababli ham, Behbudiyning har bir asari va har bir sa'y-harakati millatning qaddini tiklashga, o'zlikni anglashga xizmat qilgan buyuk jasorat namunasi bo'lib qolaveradi. Behbudiyning jismonan yo'q qilinishi uning g'oyalarini o'ldirolmadi.

U asos solgan maktablar va ilgari surgan "Haq berilmas, olinur!" degan shiori keyingi avlod uyg'onishiga poydevor bo'ldi. Bugungi kunda bu ulug' siymoning nomi oqlanib, uning ilmiy va adabiy merosi davlatimiz tomonidan yuksak qadrlanmoqda. Zero, millat ozodligi va ma'rifati yo'lida jon fido qilgan insonlarning xotirasi mangu yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jadidlar: Mahmudxo'ja Behbudiy asari 3-bet
2. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2005 yil 4-soni
3. "Mahmudxo'ja behbudiy ilmiy-adabiy merosini o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusidagi davra suhbat materiallari

¹⁴ "Mahmudxo'ja behbudiy ilmiy-adabiy merosini o'rganishning dolzarb masalalari"